

**O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR  
HOSILALARI BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGI TAHLILI**

*Malikova Gulhayo Turdali qizi*

*Namangan muhandislik-texnologiya instituti "Iqtisodiyot" fakulteti  
"Buhgalteriya hisobi va audit" kafedrası tayanch doktoranti*

**Annotatsiya.** Maqolada investitsiya tushunchasi, kredit-moliya tizimining investitsiya faoliyatidagi o'rni va bank investitsiya faoliyatining mohiyati muhokama qilinadi. Tijorat banklarining investitsiya jarayonidagi ishtirokining asosiy yo'nalishlari ta'kidlandi va tijorat banklarining investitsion va emission faoliyatini keyingi muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan tavsiyalar berildi.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, bank tizimi, investitsiyalar, investitsiya jarayoni, bankning investitsiya faoliyati, bank investitsiyalari, bankning investitsiya siyosati va strategiyasi.

*АНАЛИЗ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ  
НА РЫНКЕ ПРОИЗВОДНЫХ ЦЕННЫХ БУМАГ В УЗБЕКИСТАНЕ*

*Маликовой Гулхайо Турдали кизи, докторант кафедры «Бухгалтерский  
учет и аудит» факультета «Экономика» Наманганского инженерно-  
технологического института*

**Аннотация:** В статье рассматривается понятие инвестирования, роль кредитно-финансовой системы в инвестиционной деятельности и сущность банковской инвестиционной деятельности. Были выделены основные направления участия коммерческих банков в инвестиционном процессе и даны рекомендации, необходимые для дальнейшего успешного развития инвестиционно-эмиссионной деятельности коммерческих банков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, банковская система, инвестиции, инвестиционный процесс, банковская инвестиционная деятельность, банковские инвестиции, банковская инвестиционная политика и стратегия.

*ANALYSIS OF THE INVESTMENT ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS IN THE  
DERIVATIVES MARKET IN UZBEKISTAN*


*Malikova Gulhayo Turdali kizi, doctoral student of the Department of  
Accounting and Audit, Faculty of Economics, Namangan Institute of Engineering and  
Technology*

**Abstract:** The article discusses the concept of investment, the role of the credit and financial system in investment activity and the essence of banking investment activity. The main directions of participation of commercial banks in the investment process were highlighted and recommendations necessary for the further successful development of investment and issuance activities of commercial banks were given.

**Keywords:** commercial banks, banking system, investments, investment process, bank investment activities, bank investments, bank investment policy and strategy.

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirishga, ularning kapitallashuv darajasini va barqarorligini yanada oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Yurtimiz kredit muassasalarining kapitallashuv darajasini va barqarorligini yanada oshirish maqsadida ularning aktivlarini hamda jami kapitallari hajmlarini ko'paytirish yuzasidan qabul qilingan hukumat qarorlari kredit muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtirokini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat boshqaruv organlari tomonidan chiqarilayotgan qonun va qonun osti hujjatlari qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning yanada faollashishiga olib kelmoqda. "Qimmatli qog'ozlar bilan birjadan tashqari bitimlarning hisob reestri to'g'risida" nizomga o'zgartirishlar, "Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar chiqarilishlari bilan ishlash va ularni muomalada bo'lishi to'g'risida" nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi, «Hujjatli qimmatbaho qog'ozlarni yo'q qilish bo'yicha» yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi yuqoridagi fikrlarga dalil bo'la oladi. Qimmatli qog'ozlar davlatning to'lov oborotida katta rol o'ynaydi, chunki ko'pincha ular orqali iqtisodiyotning ustuvor sohalariga mablag'lar jalb qilinishini ta'minlovchi investitsion jarayonlar amalga oshiriladi. Shuningdek, moliya bozorida aynan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar asosiy daromad keltiruvchi operatsiyalardan biri hisoblanadi. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida, kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan. Jumladan, mazkur konsepsiyada, mustahkam moliyaviy institutlar (banklar, sug'urta kompaniyalari, yirik davlat kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari)ga qimmatli qog'ozlar (obligatsiyalar, veksellar va boshqalar) chiqarishga ruxsat berish hamda qimmatli qog'ozlarni dastlabki va qo'shimcha emissiya qilishni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini soddalashtirish kabi juda dolzarb masalalar ko'zda

tutiladi. Shuni ham alohida ta’kidlab o’tish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5177-sonli Farmoni bilan valyuta bozorini liberallashtirish jarayonlarida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan qat‘iy monetar siyosat olib borish belgilangan bo‘lib, bunda uning instrumentlaridan faolva moslashtirgan holda foydalanishni nazarda tutish, davlatning qimmatli qog‘ozlar bozorini takomillashtirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotini hamda davlat qimmatli qog‘ozlarini garovga qo‘yish bilan banklarning likvidligini oshirish bo‘yicha operatsiyalarning amalga oshirishni amaliyotga joriy qilish vazifasi qo‘yilgan. Iqtisodiyotni rivojlanishida, hamda uning turli sohalarini bir maromda ishlab turishi uchun investitsiyalar muhim rol o‘ynadi. Hozirda, katta hajmda moliyaviy resurslarni jamlovchi va uni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltira oladigan asosiy moliyaviy institut – banklar bo‘lib turibdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mana shu faoliyatni qimmatli qog‘ozlar vositasida amalga oshirish kredit muassasalari uchun ko‘p jihatdan qulaydir. Tijorat kredit muassasalarining mamlakat qimmatli qog‘ozlar bozorining shakllanishiga ortib borayotgan e‘tibori, milliy iqtisodiyotning investitsiyalarga bo‘lgan tobora o‘sib boruvchi ehtiyojlari bilan uzluksiz bog‘liqdir, chunki ularsiz ijtimoiy ishlab chiqarishni chuqur qayta qurish, eksport salohiyatini o‘stirish va aholining turmush darjasini oshirishga ruhsat yuq.



Birja aylanmasining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, foizda biz tahlil qilayotgan davr mobaynida birja aylanmasining tarmoqlar bo‘yicha tarkibida banklar va agrosanoat

majmuasining ulushi ortganligining hisobiga qolgan tapmoqlarning birja aylanmasidagi ulushi kamaygan. Shuni ham aytish kerakki, birja aylanmasida engyirik ulushni har ikki yilda ham banklar saqlab qoldi. Kredit muassalarning 2017-yilda birja aylanmasidagi ulushi 50,6 foizni tashkil etgan balsa 2018-yildagi birja aylanmasidagi ulushi 86,3 foizni tashkil etgan 2020-yilda bu kursatkich 90 foizni tashkil etgan. Bu banklarimizning qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'zining mustahkam mavqeini yanada oshganligidan dalolat beradi. Qolgan tarmoqlarning ulushi juda ham past va yildan yilga pasayish tendensiyasiga ega. Faqat agrosanoat majmuasi 2017-yilda 5,3 foizni, 2018 -yilda 9,2 foizni tashkil etib banklardan keyin yetakchilik qilmoqda.

Iqtisodiyotni takomillashtirish va liberallashtirish keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish, jamiyatni barcha jabhalarini tubdan o'zgartirish yo'liga kirib borishi mamlakat bank tizimini qimmatli qog'ozlarbozoridagi investitsiya faoliyatini amalga oshirishga kerak bo'lgan yangi vazifalarni belgilab berdi. Xuddi shuningdek, qimmatli qog'ozlar bozorida kredit muassasalarining investitsiya faoliyati banklar uchun yangi imkoniyatlarni va o'z hokimiyati doirasini kengaytirish hamda barqaror daromadni olib, bankni likvidligini ta'minlash istiqbolini ochib berdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston bank amaliyotida kredit tashkilotlarining amaliyotida kredit tashkilotlarining aktivlari tarkibi qimmatli qog'ozlar ulushini oshirish bank daromadining oshishiga xizmat qilibgina qolmasdan ularning likvidligini oshirib, aktivlarni diversifikatsiyalashiga xizmat qiladi. Banklarning investitsiya portfelida davlat qimmatli qog'ozlarining bo'li juda yuqori likvidli aktiv sifatida tan olinishi bilan birgalikda mamlakatda fond bozori va bank tizimini bir-biri bilan raqobatlashadigan darajaga yetishi iqtisodiyotda resurs muammosini hal qilib jamiyatni jadal sur'atlarda rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Abdullayeva Sh. "Bank ishi" darslik, Toshkent, "Iqtisod-Moliya", 2010- yil. 216 bet.
2. Abdullaeva Sh. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "Iqtisod-Moliya", 2007 –yil. 530 bet.
3. Alimov I.I. Xusanboev A.G'.Ikramov A.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. O'quv qo'llanma. T.:TDIU 2010. 214 bet.
4. Butikov I.L. Qimmatli qog'ozlar bozori. - T.: Konsauditinform, 2001.